

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot
obyekti sifatida6

Dilrabo ELOVA

Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza
qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)24

Вафа Абдуллаева-Набиева

Развитие синтаксиса азербайджанского языка в рамках
лингвокультурологии40

Kamil Tilyabayev

O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot58

Shaxlo Naraliyeva

O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik
tadqiqi (O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)82

ADABIYOTSUNOSLIK

Gulbahor Ashurova

Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik
vosita sifatida.....95

Abdug'ani Nasriddinov

Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi108

FAN. TA'LIM. METODIKA

Umidjon Kushayev

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi: institutsional
transformatsiya va strategik model (O'zbekiston misolida)120

Мадина Назарова

Формирование иноязычной риторической компетенции на
материале английского официально-делового дискурса в
неязыковом вузе133

TARIX. MANBASHUNOSLIK

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar va o'g'uz turklari149

Ilhami Cəfərsəy

Avrasiyanın qədim Xivə, Samara və Buxara şəhərləri172

CONTENT

LINGUISTICS

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

The Holy Qur'an as an Object of Theolinguistic Research in
Uzbek Linguistics.....6

Dilrabo Elova

Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts24

Vafa Abdullayeva-Nabiyeva

Development of the Syntax of the Azerbaijani Language Within
the Framework of Linguoculturology40

Kamil Tilyabaev

Uzbek Language: Acquisition, Decolonisation and Emotions58

Shakhlo Naralieva

A Cognitive-Pragmatic Study of Environmental Discourse in Uzbek
Fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad).....82

LITERATURE

Gulbahor Ashurova

Cycle of Poems as a Lyric Device in the Creation of the Image of
Alisher Navo'i95

Abdugani Nasriddinov

The Harmony of Philosophy and Religion in Literature108

SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

Umidjon Kushaev

Integration of Artificial Intelligence into the Education System: Institutional
Transformation and Strategic Model (Uzbekistan as an Example)120

Madina Nazarova

Formation of Foreign-Language Rhetorical Competence Through
English Official-Business Discourse in Non-Language Higher Education...133

HISTORY. SOURCE STUDIES

Shamsiddin S. Kamoliddin

Samanids and Oghuz Turks149

Ilhami Jafarsoy

Ancient Khiva, Samara and Bukhara Cities of Eurasia172

O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot

Kamil Tilyabayev¹

Abstrakt

Ushbu maqolada so'nggi 150 yil davomida o'zbek tilining rivojlanishi va uni ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonlari tadqiq etilib, bugungi amaliyotlar o'zgarib borgan mustamlakachilik munosabatlari kontekstida tahlil qilinadi. Unda Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi davridagi til siyosati ko'rib chiqilib, o'zbek tilining rus tiliga bo'ysundirilishi bilan bir qatorda standartlashtirish, yozuv islohotlari va ta'lim sohasidagi mahalliy subyektlik ham yoritiladi. Shuningdek, 1991-yildan keyingi mustaqillik davri tahlil qilinib, to'liq yakunlanmagan alifbo islohoti, davlat boshchiligidagi til rejalashtirilishi, so'nggi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, cheklangan jamoatchilik tashabbuslari va raqamli faollik muhokama qilinadi. Tahlilda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish tizimining tarixiy shakllanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Maqola so'ngida o'zbek tilini o'rganishga oid hissiyotlar, munosabatlar va o'rganuvchilar tajribalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning yetarlicha emasligi qayd etilib, muhim bo'shliq aniqlangan: o'zbek tilini dekolonizatsiya qilish, ko'pchilik vakillarining o'z tilini ikkinchi til sifatida o'rganishi va bu jarayondagi emotsional jihatlar hozirgacha baravar o'rganilmaganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *o'zbek tilini dekolonizatsiya qilish, mustamlakalik va postkolonializm, o'zbek tili ikkinchi til sifatida o'qitish, til siyosati, til o'rganishda hissiyotlar va munosabatlar.*

Kirish

Ushbu maqolada o'zbek tilining so'nggi 150 yil davomida qanday rivojlangani va ikkinchi til sifatida qanday o'qitilgani haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilining O'zbekistondagi hozirgi holati va uni o'zgartirishga qaratilgan urinishlar muhokama qilinadi. Shu munosabat bilan, birinchidan, o'zbek tilining rivojlanishiga ta'sir qilgan tarixiy sharoitlarni tushunish uchun rus mustamlakachiligi davri ko'rib chiqiladi. Ikkinchidan, mustaqillik yillarida o'zbek

¹ Tilyabayev Kamil Zaitjonovich – ta'lim va ijtimoiy adolat bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti.

E-pochta: k.tilyabaev@wiut.uz

ORCID ID: 0009-0009-0983-1656

Iqtibos uchun: Tilyabayev, K. Z. 2026. "O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 58 – 81.

tilining rivojlanishi tahlil qilinib, o'zbek tilini dekolonizatsiya qilishda yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga yondashuvlarga e'tibor qaratiladi. Uchinchidan, zamonaviy O'zbekiston sharoitida mustamlakachilik muammolari ko'rib chiqiladi. To'rtinchidan, mustamlakachilik va ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan o'zbek tilini o'rganish tajribasi tanqidiy baholanadi. Nihoyat, o'zbek tilini o'rganish davomida ushbu tilga nisbatan shakllanayotgan his-tuyg'ular va munosabatni aniqlash bo'yicha mavjud tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Bu yerda asosiy g'oya shundan iboratki, O'zbekiston fuqarolarining o'zbek tilini ikkinchi til va ko'pchilik tili sifatida o'rganish tajribalari, uning dekolonizatsiyasi va tegishli his-tuyg'ular har doim alohida o'rganilgan bo'lib, hech qachon birga tadqiq qilinmagan.

Zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi

O'zbek tili uzoq tarix va ko'p asrlik adabiy an'analarga ega turkiy til hisoblanadi. Biroq, o'zbek tilining bugungi kungacha qanday rivojlangani haqida gapirganda, o'zbek tili tarixining so'nggi 150 yilini alohida hisobga olish kerak. Bu davrning asosiy qismi Rossiya mustamlakachiligi davriga to'g'ri keladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari va ularning milliy tillari uchun Rossiya imperiyasi va Sovet davrining mustamlakachiligi haqida ko'plab qarashlar mavjud. Ularning o'zbek tili bilan bog'liq barcha jihatlar quyida batafsil muhokama qilinadi.

Shubhasiz, Rossiya imperiyasi markaziy osiyoliklarni o'ziga qaram fuqarolar sifatida ko'rgan va mahalliy resurslarni ekspluatatsiya qilish siyosatini tipik mustamlakachilik uslubida olib borgan [Brower 2012, 20 – 25]. Bundan tashqari, rus tili mahalliy aholining Rossiya imperiyasiga sodiqligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan, bu esa yosh mahalliy aholiga rus tilini o'rgatish orqali amalga oshirilgan [Hofmeister 2016, 424-430]. Bu amaliyot Sovet davrida ham davom etgan, o'shanda rus tili siyosat, iqtisodiyot, ta'lim va armiya kabi turli sohalarda davlatni birlashtiruvchi til sifatida targ'ib qilingan [Мякшев 2015, 42 – 46]. Biroq, 1989-yilda, ya'ni Sovet Ittifoqining tarqalishiga 2 yil qolganda, o'zbeklarning atigi 24,6 foizi rus tilida ravon so'zlashgan [Tyson 2009, 48], etnik ruslar esa O'zbekiston umumiy aholisining atigi 8,3% ini tashkil etgan [Dietrich 2005, 7]. Shuning uchun, rus mustamlakachilik tuzumini etnik o'zbeklar va o'zbek tiliga nisbatan aparteid yoki genotsid deb atash aniq mubolag'adir.

Rus tili rus metropoliyasiga bo'ysunishni o'rnatishda asosiy

vositalardan biri bo'lsa-da, bu jarayonda mahalliy tillarning roli ahamiyatsiz deb da'vo qilish noto'g'ri bo'lardi. Aslida, Rossiya imperiyasi amaldorlari o'z hukumati tomonidan Markaziy Osiyo tillarini yaxshi bilmasligi uchun tanqid qilinardi, chunki ular uchun mahalliy huquq tizimining murakkabliklarini tushunish qiyin edi [Апанов 2005, 288 – 290]. Boshqa tomondan, rus olimlari va tilshunoslari o'zbek tilini o'rganish, rivojlantirish va o'qitishda muhim hissa qo'shdilar [Лукашова 2021, 15 – 17]. Ularning mahalliy tillarga bo'lgan muhabbatsiz bu tadqiqotlarning barchasi imkonsiz bo'lardi. Dastlab ular Rossiya imperiyasi mafkurasini tarqatish maqsadida ilgari hech qachon bo'lmagan mahalliy tillarda gazeta va jurnallar nashr eta boshladilar [Khalid 1994, 188–190]. Qizig'i shundaki, rus sharqshunoslari Yevropadagi millat va milliy til tushunchalarini mustamlakalangan Markaziy Osiyoga olib kelib, mahalliy ziyolilar orasida ilgari mavjud bo'lmagan millat qurish g'oyasining paydo bo'lishini tezlashtirgan [Tolz 2005, 132 – 138].

Mahalliy ziyolilar (masalan, jadidlar) Markaziy Osiyoda millat qurish jarayonlari haqidagi ba'zi rus olimlarining xatoli nazariyalariga javoban milliy o'zlik g'oyalarini rivojlantira boshladilar [Абашин 2008, 220 – 235]. Garchi yondashuvlari farq qilsa-da, ruslar va mahalliy ziyolilar milliy tilni zamonaviylashtirib, standartlashga katta hissa qo'shganlar [Tuna 2002, 273 – 279]. Bu harakatlar nafaqat amalga oshirilgan, balki Sovet davrida ham rag'batlantirilgan, chunki millat maqomiga ega har bir etnik guruhga o'z hududi va milliy o'zlikni rivojlantirish imkoniyatlari berilgan edi (garchi sovet mafkurasini bilan cheklangan bo'lsa-da). O'zbek xalqiga ham bu imkoniyat berilgan va 1924-yilda SSSR tarkibidagi respublika — O'zbekiston SSR tashkil etilgan. Keyingi yigirma yil yangi tashkil etilgan davlatda o'zbek tilining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ldi [Fierman 2009, 1210 – 1214]. Bu davr o'zbek yozuvini modernizatsiya qilish va standartlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar va muhokamalar bilan o'tdi.

1929-yilda o'zbek tili arab yozuvidan lotin yozuviga, 1940-yilda esa lotin yozuvidan kirill yozuviga o'tkazildi. Bu o'zgarishlar ko'pincha o'zbek xalqi uchun salbiy deb qaraladi, chunki ular nafaqat o'zbek xalqining boy adabiy merosidan bahramand bo'lish imkoniyatini yo'qotishga, balki bu islohotlar uchun va ularga qarshi kurashgan ko'plab iste'dodli va ziyoli insonlarning qirilishiga sabab bo'ldi [Egamberdiyev 2022, 11 – 15]. Biroq, o'zbek xalqini va tilini Sovet islohotlarining passiv qurbonlari sifatida, umuman irodasiz deb bilish noto'g'ri bo'ladi, chunki o'zbek ziyolilari (masalan,

jadidlar) bu jarayonda faol ishtirok etgan [Bobomurodova 2022, 442 – 444].

Aslida, 1929-yilda o'zbek tilining xususiyatlarini to'liq aks ettiruvchi alifbo yaratilib, mamlakatda savodsizlikka qarshi kurashga sezilarli yordam berdi. U o'zbek tilining qipchoq lahjasiga asoslangan bo'lib, singarmonizm hamda o'zlashma so'zlarni o'zbek imlosi, urg'usi va talaffuziga moslashtirish qoidalarini o'z ichiga olgan [Fierman 1985, 216 – 217]. Biroq ba'zi o'zbek ziyolilari bu alifboga qarshi chiqib, o'z mavqeyidan foydalanib, adabiy o'zbek tilidan singarmonizmni olib tashlashgan, chunki O'zbekistonning yirik shaharlarida so'zlashiladigan shevalarda bunday hodisa yo'q, va yirik shaharlar u paytda Sovet hokimiyatining ko'zgusi, tayanchi va targ'ibotchilari bo'lishi kerak edi [Uzman 2010, 55 – 56].

1930-yillarning oxirida SSSR xalqlarining yozuvlarini, jumladan, o'zbek yozuvini lotinlashtirish loyihasi keskin qarshilikka uchrab, rus tilining boy madaniy merosini saqlash bilan bog'liq qiyinchiliklar sababli to'xtatildi. Sovet turkiy etnik guruhlarining Turkiyaga yanada yaqinroq bo'lishi haqida ham xavotir bildirildi [Garibova 2011, 273 – 274]. Madaniyatlararo muloqotda esa faqat rus tili vositachi bo'la oladi deb hisoblangan [Shelestyuk 2019, 6 – 7].

Shu munosabat bilan, 1940-yilda lotin yozuvidan kirill alifbosiga o'tish kompaniyasi boshlandi va natijada SSSRda ko'plab etnik guruhlar kirill alifbosini qabul qildi. Yangi kirill alifbosi o'zbek tilining qarluq lahjasi fonetikasiga tayangan bo'lib, singarmonizmni o'z ichiga olmagan. Bundan tashqari, barcha o'zlashma so'zlar faqat rus tili orqali kira olib, rus tili imlosi, urg'usi va talaffuzini aks ettirishi kerak edi [Boehmer 2007, 29 – 30]. Bu normalar rasmiy ravishda 1956-yilgi imlo standartlarida belgilanib, hozirgacha kiril alifbosidan foydalanilganda o'z kuchini yo'qotmagan.

O'zbek tilining rus tiliga bunday bo'ysunishiga qaramay, qabul qilingan standartlar o'sha davrni aks ettirib, keyingi 20–30 yil davomida samarali xizmat qilgan. Ammo undan so'ng ular eskirib [Ибрагимов 1973, 232 – 236] bugungi kunda o'zbek tili deyarli yarim asr orqada qolib ketishiga va postmodern reallikni to'la aks ettirmasligiga olib keldi [Alimdjanov 2019]. Mahalliy tillar hech qachon Sovet hukumatining e'tiborida bo'magan, uning asosiy maqsadi rusiyzabon sotsialistik millat yaratish edi. Ammo shu bilan birga, o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri hujumlar bo'lmagan [Kreindler 1989, 56]. E'tiborga molik jihati shundaki, 1989-yilda (SSSR tarqalishidan bir necha yil oldin) respublikadagi milliy tilning o'rni haqidagi tanqidlarga javoban o'zbek tili O'zbekistonning davlat tili

maqomini olgan, ammo bu tanqid markazdan rag'batlantirilgan edi [Gorshenina 2021, 209 – 212].

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining rivojlanishi

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishdi va o'z til siyosatini yuritishni boshladi. Turkiya unga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, shuning uchun o'zbek tilini lotin alifbosiga o'tkazish jarayoni 1993-yilda boshlandi. 1995-yilda alifbo o'zgartirildi, bu Turkiya bilan munosabatlarning sovuqishi va AQSh bilan aloqalarning mustahkamlanishi bilan birga yuz berdi. Alifbo islohotining va o'zbek tilini modernizatsiya qilish jarayonining kechiktirilishini ko'pincha mamlakatda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga, shuningdek, Rossiya bilan aloqalarning tiklanishiga bog'lashadi [Космарский 2003, 78 – 82]. Ba'zi tadqiqotchilar [masalan, Schweitzer 2020, 9 – 10] o'zbek yozuvining hal qilinmagan muammolari mintaqadagi asosiy o'yinchilar – Rossiya va G'arb o'rtasida muvozanatni saqlash uchun hali ham ishlatilmoqda, deb hisoblaydi. Garchi bu dalil postkolonializmga yorqin misol bo'lsa-da, O'zbekistonning til bilan bog'liq siyosatida o'z yo'li borligini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'zbek tilini "yuqoridan" va "pastdan" dekolonizatsiya qilish yondashuvlari mavjud.

O'zbek tilini "yuqoridan" dekolonizatsiya qilish yondashuvlari

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov boshchiligida (1991–2016) o'zbek tilining O'zbekistondagi mavqeyini mustahkamlash uchun yuqorida aytilgan alifboning chala islohotidan tashqari, rus tilining O'zbekistonda millatlararo muloqot tili maqomidan mahrum qilingani [Pavlenko 2008, 298 – 299] va Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining ochilganidan [Zaripov 2020, 166] boshqa deyarli hech narsa qilinmadi. O'zbekistonda milliy til atrofidagi millatchilik ritorikasi o'zbek tilini milliy faxr manbasi, har kim hurmat qilishi va qadrlashi kerak bo'lgan muqaddas bir ramz deb ko'rsatishdan narirog'iga bormadi, ammo bu da'volarni amalga oshirish uchun juda kam ish qilindi [Asanov 2020]. Aksincha, so'nggi paytlarda O'zbekiston hukumatning til sohasidagi faoliyati mamlakat ichida va tashqarisida sezilarli darajada oshdi. Buni: 1) Afg'onistonda o'zbek tilini uzluksiz rivojlantirish bo'yicha Toliban bilan kelishuvlar [Murodqulov 2021]; 2) xorijda o'zbek tilini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash uchun Vatandoshlar jamg'armasini

tashkil etish [UzDaily.uz, 2021]; 3) O'zbek tili va adabiyotida fundamental va amaliy tadqiqotlarning samaradorligini yanada oshirish to'g'risidagi qonunni qabul qilish (2020); 5) "O'zbek tili bayrami kuni"ni nishonlash haqidagi qonunni qabul qilish (2020); 6) O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va maqomini oshirish chora-tadbirlari haqidagi qonunni qabul qilish (2019) [Zaripov 2020, 167 – 168] misollarida ko'rish mumkin.

2019-yilgi qonunning qabul qilinishi esa, o'z navbatida, o'zbek tilining obro'si so'nggi 30 yil ichida yetarlicha yuqori bo'lmaganiga yana bir isbotdir. Shuningdek, bu o'zbek tilini mamlakatdan tashqarida qo'llab-quvvatlash zarurligini savol ostiga qo'yadi, chunki O'zbekiston ichidagi vaziyat yanada chuqurroq e'tibor talab qiladi. Bundan tashqari, o'zbek tili siyosatining hozirgi masalalari: 1) globallashuv sharoitida boshqa tillarning o'zbek tiliga ta'sirini nazorat qilish; 2) o'zbek tilining obro'sini oshirish va undan foydalanish doirasini kengaytirish; 3) o'zbek tilidagi atamalar va o'zlashma so'zlar bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun komissiya tuzish; 5) o'zbek tilidagi elektron platformalarni yaxshilash; 6) o'zbek tilini texnologiya va internet tiliga aylantirish; 7) o'zbek tilidan foydalanishni nazorat qilish; 8) o'zbek tiliga oid qonunchilikni buzish uchun javobgarlikka tortish; 9) til masalalarini ommaviy muhokamalar orqali hal qilish [Zaripov 2020, 169] kabilarini o'z ichiga oladi. Mazkur choralar ro'yxatida ta'limning bu jarayondagi roli haqida aniq bir band yo'q. Bu yuqoridagi dalillar bilan birga, 1989-yildan beri o'zbek tilining "yuqoridan" olib borilgan dekolonizatsiyasi to'liq samarali bo'lmaganini ko'rsatadi. Bitta savol tug'iladi: odatda ijtimoiy faollik bilan bog'liq bo'lgan va o'zbek tilining turli kontekstlarda rivojlanishiga yordam beradigan "pastdan" choralar ko'rilganmi? Bu haqda keyingi kichik bo'limda muhokama qilinadi.

O'zbek tilini "pastdan" dekolonizatsiya qilish yondashuvlari

Adabiyotlarda [masalan, Sallabank 2005, 44 – 48; Liddicoat va Baldauf 2008, 120 – 138; Trinick, May va Lemon 2020, 10 – 20] asosan yo'qolib borayotgan va ozchilik tillariga nisbatan "pastdan" dekolonizatsiya choralari ko'rilayotgani haqida ma'lumot mavjud. Biroq o'zbek tili bunday tillar sirasiga kirmaydi, chunki O'zbekistonda 35,3 million kishi yashaydi [Worldometer 2023] va ulardan 28 millioni o'zbek tilida so'zlashadi [Global Connect 2023]. Agar o'zbek tili shunchalik keng tarqalgan bo'lsa, unda muammo nimada?

Ushbu statistika o'zbek tilining gullab-yashnayotganini ko'rsatsa-da, soha mutaxassislari [Alimjanov 2019] o'zbek tili O'zbekistonda zamonaviylik va hokimiyat tiliga aylanmaganini ta'kidlaydilar; chunki: 1) rus tili mamlakat ziyolilari tomonidan faol qo'llab-quvvatlanadi va faqat o'zbekcha bilish ko'pincha qoloqlik deb tushuniladi; 2) o'zbek tili ilmiy matbuotda deyarli yo'q, u "oddiy xalq" tili bo'lib qoldi; 3) bugungi o'zbek tilidan foydalanish doirasi faqat milliy adabiyot, folklor va jahon merosi tarjimalari bilan cheklanadi, bu esa Sovet davridan beri deyarli o'zgarmagan; 4) o'zbek tili maktablarda o'qitilib, san'at va televideniya saqlanib qolgan bo'lsa-da, bu sohalar asosan Sovet davrida yaratilgan bilim va qoliplardan voz kechmay, o'zbek tilini zamonaviy tushunchalar uchun yopiq va jiddiy masalalarni muhokama qilish uchun yaroqsiz qiladi. Biroq o'zbek tilining keng tarqalganligi va o'zbek jamiyati an'analarga sodiq bo'lib, 'begona' deb hisoblangan g'oya va amaliyotlarni osonlik bilan rad etishi [Asanov 2019, 73] O'zbekistonning til siyosatida "pastdan yuqoriga" yondashuvlarning yo'qligini yaxshi tushuntiradi, lekin bunday choralar til siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim deb hisoblanadi [Kingsley 2009, 154-158].

O'zbek tilini dekolonizatsiya qilish sohasida ijtimoiy harakatlar va raqamli faollik

Tanlash huquqining mavjudligi O'zbekistonning (post) kolonialligini va o'zbek tilini turli tarixiy davrlarda faqat bo'ysunish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga qarshi dalil bo'lgani uchun, bu sohada ijtimoiy faollikning mavjudligini ta'kidlash lozim. Yuqorida tilga olinib, 1930-yillargacha o'zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan jadidlardan tashqari, keyingi o'zbek tarixida shunga o'xshash misollar talaygina. Ular oldingi ishimizda batafsil yoritilgan edi [Tilyabaev 2025, 47 – 49].

Bundan tashqari, o'zbek tili bilan bog'liq raqamli faollikning mavjudligini ham ta'kidlash muhimdir. Raqamli faollar tomonidan ko'tarilgan asosiy masalalar orasida til sofliqi uchun kurash [Asanov 2019, 79-81], o'zbek tilini isloh qilish, o'zbek tilining lug'ati va terminologiyasiga ruscha ta'sirni kamaytirish, kirill harflaridan lotin harflariga o'tish, grammatikani soddalashtirish, talaffuz va imloni erkinlashtirish, o'zbek tilining lahjaviy xilma-xilligini yozma shaklda aks ettirish (mustamlakachilikdan oldingi davrda bo'lgani kabi) [Asanov 2017] mavjud. Bu masalalar dekolonizatsiya g'oyalari bilan to'la.

Ayrim o'zbek ziyolilari o'zbek tilini dekolonizatsiya

qilishda faol ekanligiga oid ko'plab dalillar mavjud bo'lsa-da, oddiy odamlarning o'zbek tilini qanchalik muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o'rganib, uni dekolonizatsiya qilishga oid qarashlari haqida hech qanday tadqiqot yo'q. Bu ilmiy izlanishlar to'ldiradigan muhim bo'shliq sanaladi.

O'zbekistonda postkolonial muammolar

Markaziy Osiyoda postkolonializm muammolarining dolzarbligi shundan ham iboratki, millatchi va ruhoniylardan tashqari ko'plab markaziy osiyoliklar (qozoqlar, qirg'izlar va tojiklar), Sovet davrini mustamlakachilik davri deb, o'zlarini esa ilgari mustamlakalangan deb tan olishga tayyor emaslar [Laruelle 2009, 36 – 37]. Bunga qarama-qarshi ravishda, 1990–2000-yillardagi rasmiy o'zbek tarixchilari Rossiya hukmronligi davrini mustamlakachilik deb ko'rgan [Laruelle 2009, 34 – 36; Глущенко 2022, 1 – 6]. Qiziqarli tomoni shundaki, O'zbekistonda rasmiy dekolonizatsiya ritorikasi 2016-yildan beri yumshagan yoki faqat o'zbek tilida olib borilayotgandir [Gorshenina 2021, 220 – 228]. Shunday qilib, o'zbek amaldorlari va akademiklar o'tmish va hozirgi zamon haqidagi tasavvurga ta'sir ko'rsatadi deb taxmin qilish mumkindir, ammo bu o'zbeklar tanqidiy fikrlay olmaydi degani emas. Ularning tanqidiy fikrlashi mustamlakachilik davrida katta ziyon ko'rgan, xolos.

Darhaqiqat, zamonaviy qarashlar mustamlakachilikka oid turli nuqtayi nazarlarni hisobga oladi, ammo ular ayniqsa post-kolonial til kurashi kontekstida sobiq mustamlakachi va mustamlakalanganlarni yarashtirish imkoniyatini bermaydi. O'zbek ilm ahli yaqinda postkolonial masalalarda G'arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarni tobora ko'proq qabul qila boshlagani sababli [Gorshenina 2021, 206 – 224], Sovet merosi bilan muvozanatga yetib, jahon fanida o'z ovozi topishi uchun biroz vaqt kerak bo'lishi aniq. Albatta, mustamlakachilikni yengishga (dekolonizatsiyaga) qaratilgan hozirgi aggressiv ritorikaning davom etishi rus mustamlakachilik merosi egasining o'zbek tilini o'rganish umidini o'ldiradi. Bu muammoni ko'rib chiqish va unga amaliy yechim topish uchun tegishli nazariy asos topish muhim, ammo bu o'zbek tilini o'qitish va o'rganishning turli jihatlarini ko'rib chiqmasdan amalga oshirish qiyin.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganish: o'tmishi va buguni

Shuni ta'kidlash muhimki, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida

o'qitish va o'rganishning rasmiy tizimi ruslar tomonidan joriy etilgan [Назарова 1992, 9 – 21]. Hayratlanarli tarzda, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida birinchi bo'lib o'qitganlar ruslar edi [Лыкашова 2021, 14 – 19]. Shunday qilib, epistemitsid, ya'ni mahalliy bilimlar tizimini yo'q qilish bilan birga ba'zi yangi bilim tizimlari yaratilgan, ammo buni har doim savol ostiga qo'yish mumkin, chunki agar hech kim Markaziy Osiyoni bosib olmagan bo'lsa, etnik o'zbeklar o'z otabobolarining tilini ikkinchi til sifatida hech qachon o'rganmagan bo'lardi. Shunga qaramay, Yevropa an'alariga asoslangan o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning hozirgi rasmiy tizimi uni o'xshash tarzda birinchi til sifatida o'zbek o'qitish tizimidan eskiroqdir. Markaziy Osiyoda ona tilida o'qitish (savod chiqarish) asrlar davomida mavjud bo'lsa-da [Yuldasheva 2021, 10 – 35], o'zbek tili faqat 1933-yilda (mustamlakachilik davrida) standartlashgan til bo'lib, millatni birlashtirish maqsadida alohida maktab fani sifatida joriy etilgan [Asilova va Qarayeva 2023, 68].

Aksincha, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish boshlanishi 1880-yillarga borib taqaladi. O'shanda rus sharqshunosi Nalivkin rus maktablarida, Turkiston O'qituvchilar seminariyasida va rus askarlari uchun o'zbek tili kurslarini tashkil qilgan. Bu kurslar juda samarali bo'lib chiqdi [Лыкашова 2021, 15 – 16]. Nalivkin, shuningdek, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish bo'yicha birinchi so'zlashgich va darsliklarning muallifi bo'lgan [Лыкашова 2021, 15 – 16]. O'zbek tilini ruscha o'qitish usuli ikki tilni taqqoslashga asoslangan bo'lib, bu usul yana bir rus sharqshunosi Polivanov tomonidan yaxshi rivojlantirilgan [Узоқов 1972, 9]. Uning ishlari keyinchalik rus tilini o'zbek maktablarida ikkinchi til sifatida o'qitishning ilmiy asosi qilib olindi [Leont'ev, Rojzenzon va Xajutin 2017, 304 – 305], va bu 1938-yildan boshlab majburiy bo'ldi [Мякшев 2015, 42].

Shuni ta'kidlash muhimki, Sovet davrida O'zbekistondagi rus maktablarida o'quvchilarning atigi bir foizi etnik o'zbeklar bo'lgan [Silver 1974, 38]. Hozir esa rus tilida ta'lim berayotgan maktab va universitetlarda o'quvchi va talabalarning 90-95 % dan ortig'ini etnik o'zbeklarni tashkil etadi [Usmonova, 2022]. Shunday qilib, tobora ko'proq o'zbek millatiga mansub odamlar erta yoshdan rus tilida ta'lim olishni boshlab, maktab hamda universitetda otabobolarining tilini ikkinchi til sifatida o'rganib kelmoqda.

E'tiborga molik jihati shundaki, Sovet davrida o'zbek tilini o'qitish rus tilini o'qitishga juda o'xshash tarzda amalga oshirilgan. Agar 1925–1970-yillarda til o'qitishning asosiy maqsadi alifbo va grammatika o'rgatish orqali uning adabiy normalarini

ommalashtirish bo'lgan bo'lsa, 1970–1990-yillarda asosiy e'tibor og'zaki va yozma nutq rivojlanishiga qaratilgan edi [Yuldasheva 2021, 8 – 15]. Bularning barchasi o'zbek maktablari va universitetlarida rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitish uchun haqiqiy ustuvor vazifaga aylandi, chunki o'zbeklarning rus tilini past darajada bilishi SSSR hukumatini xavotirga solib, ularning yakuniy maqsadi – birlashgan rusiyzabon sotsialistik millat yaratishga to'sqinlik qilardi [Seiden 2022, 39 – 41]. Rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mustabid tuzum mantig'iga to'g'ri kelardi, ammo ko'rilgan choralarning samaradorligi haqida aniq bir xulosa chiqarish qiyin. Bir tomondan, ular o'zbek jamiyatida o'zbek-rus ikki tilliligidining rivojlanishiga hissa qo'shgan bo'lsa, boshqa tomondan, o'quvchilar uchun birinchi va ikkinchi tillarni taqqoslash ahamiyatini e'tiborsiz qoldirgan yagona tilli o'rganish yondashuvi shubhali ko'rinardi [Shorish 1988, 433 – 445].

1994-yilda (O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng) ishlab chiqilgan o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha davlat dasturi asosan Sovet Ittifoqidagi rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitish dasturining tarjimasini edi [Eshmurodov 2018]. Bu rus tilida ta'lim berayotgan muassasalardagi o'rganuvchilar orasida o'zbek-rus ikki tilliligini ta'minlash umidida amalga oshirilganini taxmin qilish mumkin, ammo buning haqiqiy sababi nima bo'lishiga qaramay, o'qitish yondashuvlarida mustamlakalik saqlanib qolgan.

Shuni qayd etish joizki, yaqin vaqtgacha O'zbekistonda ikki tillilik bo'yicha tadqiqotlar asosan rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitishga qaratilgan bo'lsa, rus tilida ta'lim berayotgan maktab va universitetlarda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish hali ham atroflicha o'rganilmagan edi. 1960-yillarda boshlangan bu sohadagi tadqiqotlar hozirgacha faqat o'zbek va rus grammatikalarini taqqoslash, rusiyzabonlarning o'zbek tili ko'nikmalarini yaxshilash, lug'atini boyitish, yozish mahoratini shakllantirish, tarmoq terminologiyasini o'rgatish hamda zamonaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalarini o'zbek tili darslarida qo'llashga qaratilgan [Yusupov 2021, 102 – 105]. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganish bilan bog'liq zamonaviy masalalar asosan savodxonlikni rivojlantirish [masalan, Sharopova 2019, 41 – 45; Mukhitdinova 2023, 94 – 101], ko'p tilli muhitda o'zbek madaniyati bilan tanishish [masalan, Murtazoyeva, Qurbonova va Niyozova 2020, 144 – 147; Ergasheva va Tursunova 2020, 147 – 150], birinchi va o'zbek tillarini o'qitish integratsiyasi [masalan, Siddiqov 2020, 239 – 242; Esanova 2020, 242 – 246], o'zbek tilini

o'qitishda adabiy matnlardan foydalanish istiqbollari [Rajabov 2020, 208 – 211], xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish [masalan, Isroilova 2020, 186 – 190; Turg'unova 2020, 184-186; Ergasheva 2022, 988 – 994], mavjud o'qitish usullarini yaxshilash [Davronov 2020, 14 – 17; Maksudova 2020, 51 – 54], zamonaviy lingvistik tadqiqotlar natijalarini [Bakhronova 2020, 155; Raupova 2020, 218 – 221], yangi pedagogik tushunchalarni [Yusupova va Kurbanbaeva, 2023, 159-163] va o'zbek tilini o'qitish texnologiyalarini [Badalova 2020, 47 – 50; Ktaybekova 2023, 342-346] o'zbek tilini o'qitish dasturiga kiritish kabilardan iborat bo'lib, qisqa nashrlarda muhokama qilinadi.

Bu postkolonial nazariyaga aloqasi yo'q sof pedagogik muammolar ba'zi o'zbek raqamli faollari ko'targan jiddiy masalalar bilan birga mavjud. Masalan, o'zbek tilining hozirda alifbo bilan bog'liq muammolari bor, aniq imlo qoidalari, standartlashtirilgan test tizimi va terminologiyaga ega emas. Mavjud tizimlar mustamlaka tabiatiga ega, chunki ular sobiq saltanat tili (rus tili) yoki Sovet davrida rivojlangan standartlar ta'sirida davom etmoqda. Ushbu masalalar hal qilishni kechiktirish o'zbek tiliga qiziqishdan ko'ra ko'proq xavotirga olib keladi [Asanov 2021b].

Yana bir muhim muammo – o'zbek tilini haddan tashqari nazorat qilish. Sovet davrida bo'lgani kabi o'zbek tili darsliklarini ishlab chiqarishning monopoliyalashtirilishi [Asanov, 2021c] va jamiyat hamda akademik muhitda muhokama va tadqiqotlarni cheklovchi ko'plab taqiqlar (masalan, gender masalalari va siyosat mavzulariga) o'rnatilishi o'zbek tilining erkin rivojlanishiga to'sqinlik qiladi [Asanov 2021b]. Sovet davrida qabul qilingan ushbu repressiv mexanizmlar o'zbek tilini o'rganishga to'sqinlik qilib, uni ilg'or bo'lmagan, orqada qolib ketganlarning tili sifatida ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, o'zbek tilini o'qitish va o'rganish uchun mavjud resurslar yetarli emas. Bu o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kamaytirib, tegishli soha rivojlanishiga to'sqinlik qiladi [Asanov 2021b; 2021c], va shu bilan epistemitsid bardavomligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, til bilan bog'liq e'tiborsizlik va xijolatdan (mustamlakachilik darvidan qolgan asoratlardan) qochish orqali o'zbek xalqi milliy ong kuchsizligini va o'zbek tilini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun birgalikda harakat qilishni istamasligini namoyon etadi. Bu holat o'zbek amaldorlarining karyera qilish uchun rus tilini o'rganishlari [Asanov, 2021b], shuningdek, mahalliy maktab va universitetlarda ta'limning

past sifati o'zbek tilini o'rganishga motivatsiya bermasligi [Asanov 2021a] tufayli tobora keskinlashib boryapti. Bularning barchasi muhim bo'lsa-da, ta'lim jarayoni va til dekolonizatsiyasining asosiy ishtirokchilari bo'lmish o'zbek fuqarolarining o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish tajribasi va qarashlari e'tibordan chetda qolmoqda.

O'zbek tilini o'rganishga bo'lgan his-tuyg'ular va munosabatlarni o'rganish

O'zbek tilini ona tili yoki ikkinchi til sifatida o'rganayotganlar bo'ladimi, ularning fikrlari, munosabatlari va his-tuyg'ularini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar juda kam. Ularning birida rus tilida ta'lim olayotgan universitet talabalari uchun o'zbek tilining lotin alifbosidan foydalanish qulayligi tadqiq etilgan [Kosmarskii 2009, 192 – 195]. Tadqiqot ishtirokchilari tomonidan lotin yozuvi umuman olganda qulay deb topilishi va ba'zi siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra rad etilishiga qaramay, ma'lumotlar tahlili jarayonida etnik o'zbeklarning javoblari e'tiborga olinmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning aniq kamchiligidir. Ushbu jihatni inobatga olib, Schweitzer [2020, 12 – 14] turli yoshdagi o'zbeklarning yozuv afzalliklarini o'rgangan. Yozuv afzalliklarini tushuntirish uchun ba'zi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar aniqlangan bo'lsa-da, bu tadqiqot muammoning ta'limga oid jihatlarini yetarlicha ko'rib chiqmadi. Bundan tashqari, ikkala tadqiqot ham faqat yozuv masalalari bilan cheklangan, til o'rganish esa faqat yozuv haqida emas.

